



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING


SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2018-yil. 2-son

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz



ABDULLA ORIPOV

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi
maktab-internet yonida o'ralgan adib haykali

3-belga qarang

Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uyg'onguvchi bog'larni kezdin,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog'ingdan rang olgan dedim –
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli tog'lar
Xayolimni keldilar bosib,
Kechdi qancha intizor chog'lar,
Vasling menga bo'lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g'arib,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

O'ngirlarda sakraydi ohu,
Na'matakda sa'va mittijon.
Qorliklardan sipqarilgan suv
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Mana, bugun navro'zi olam,
Do'stlaringga gullar tutarman,
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrim bo'yi chorlab o'tarman,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Ushbu sonda



Ehning
ardog'ida
yashaydi
shoir

9- bet



"Bahor kechin
tiniq va
oppoq..."

11- bet



Nutqiy nafa-
sat olamiga
yetti qadam

27- bet



Navoiy she'r-
yatida raqam
va tasvir
mutanosibligi

35- bet

BOBURNING NECHTA DEVONI BOR?

Ko'p yillardan beri darslik va boshqa kitoblarda Zahiriddin Muhammad Boburning ikki devoni borligi haqidagi fikr takrorlanadi. Haqiqatan Bobur nechta devon tuzgan? Ular qayerda va qay ahvolda? Shular haqida biroz to'xtalsak.

XX asrda yaratilgan adabiyotimiz tarixida dastlab Bobur: "(...) ikkita devon tuzib, birida o'zbek tilidagi, ikkinchisida fors-tojik tilidagi she'rlarini to'playdi", deyilsa, keyinroq: "Bobur o'zining lirik merosini ikki devonga to'plaganiki, bulardan biri 1519-yilda Kobulda tartib berilib, uni shartli tarzda Kobul devoni deb atasak, ikkinchisi Hindistonda 1528–1529-yillarda tuzilgan bo'lib, uni olim S. Azimjonova Boburning Hind devoni tarzida nomladi va nashr ettirdi. Ammo Kobul devoni hozircha noma'lum bo'lib qolmoqda", deya ta'kidlandi.

Shu tarzda adabiyotshunosligimizda Boburning ikki devon tuzganligi haqida ma'lumot paydo bo'lgandi. To hanuz adabiyot darsliklarida bu takrorlanib keladi. Aslidachi?..

Keling, bir boshdan so'zlaylik.

"Boburnoma"ning bir o'rnida muallif Samarqand hokimi "Fo'lod Sultonga devonimni yibordim", deb yozadi. Bu voqea 1518-yilga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, Bobur o'z devonini shu vaqtda tuzgan, deyish ham mumkin. Lekin keyinchalik bitgan yana bir ruboiy-sida u:

Devonima ne rabt-u ne tartibedur,

Ne jadval-u ne lavh-u ne tazhibedur, –

deya maxsus ta'kidlaydi.

Demak, Bobur o'z she'riy to'plamini an'anaviy mumtoz devonchilik qolipiga batamom solishga ulgurmagan va hozirgacha uning mukammal devoni qo'lyozmasi ma'lum emas.

Yana o'sha savollar chiqaveradi: haqiqatan ham Bobur devonining qo'lyozmalari bormi? Bo'lsa qay biri to'la va sahih matnga ega?

Shoir she'riyatini o'rganish va targ'ib etishga munosib hissa qo'shgan olimlarning xulosalari esa yillar osha turlicha bo'lib kelgan. Jumladan, D. Ross bir (1910), F. Ko'pruli (1915), A. Samoylovich (1917) va



A. Qayumov (1965) ikki, S. Hasanov to'rt (1979), Sh. Yorqin besh (1983) va B. Yujel olti (1995) nusxasi haqida ma'lumot bergan.

Eng so'nggi tadqiqlarga ko'ra dunyo kitob xazinalarida saqlanuvchi Bobur devoni qo'lyozma nusxalarining adadi o'nta ekanligi ma'lum bo'lmoqda.¹ Demak, ular Hindistonda uch (Rampur Rizo kutubxonasidagi 19 raqamli qo'lyozma; Haydarobod Salorjang muzeyidagi 4 va 18 raqamli qo'lyozmalar), Turkiyada uch (Istanbul universiteti kutubxonasidagi 3743 raqamli, Istanbul To'pqopi saroyi Ravon kutubxonasidagi 2314 raqamli va Istanbul shahar kutubxonasi Muallim Javdat yozmalari bo'limidagi 332 raqamli qo'lyozmalar), Fransiyada bitta (Parij Milliy kutubxonasidagi 1230 raqamli qo'lyozma), Angliyada bitta (Britaniya muzeyi kutubxonasidagi 1402 raqamli qo'lyozma), Pokistonda bitta (Islomobod Milliy kutubxonasidagi 3 raqamli qo'lyozma) va Toshkentda bitta (Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondidagi 317 raqamli qo'lyozma).

Bularning ichida, shubhasiz, eng mo'tabari – Rampur nusxasidir. Garchand bu qo'lyozma 21 varaqdan iborat ixcham bo'lib, unda Boburning "Risolai Volidiya"si hamda atigi 2 masnaviy, 24 ruboiy, 2 g'azal, 3 qit'a va "Risolai aruz"dan kichik parcha o'rin olgan bo'lsa-da, juda qimmatli manba. Avvalo, u Bobur tiriklik vaqtida, uning tahriri ostida ko'chirilgan va muallifning dastxati (avtografi) saqlanib qolgan yagona qo'lyozmadir. 1528-yil chiroyli ta'liq xati bilan ko'chirilib, sahifalariga unvon ishlanib, bezalgan, oltin suvi yuritilgan va Humoyun mirzoga jo'natilgan bu qo'lyozmaning dastlabki sahifasidagi Bayramxon va 19^o varaq hoshiyasidagi Shoh Jahonning yozuviga binoan unda Bobur dastxati aniqlangan. Aynan ana shu jihatlarni ko'zda tutib, uni dastlab ingliz sharqshunosi Denison Ross (Kalkutta, 1910), keyinchalik vatanimizda akademik S. Azimjonova (Indiyskiy divan Babura. T.: Fan, 1966) va yaqinda Rampurdagi Rizo muzeyi mudiri professor Aziziddin Husayn (Rampur, 2014) faksimilesini e'lon qilgan edi.

Qo'lyozmaning qadimiyligi, ziynati, miniatura bilan bezalgani va xatining go'zalligi borasida XVI asr ikkinchi yarmida kitobat qilingan Parij nusxasi ham ajralib turadi. Boburning lirik she'rlari eng ko'p jamlangan qo'lyozma esa Istanbul universitetidagi manbadir. Unda boshqa nusxalarda uchramaydigan Boburning bir nechta, jumladan, fors tilidagi she'rlari mavjud.

Biroq mazkur qo'lyozmalar orasida mumtoz devon tuzish an'anasi asnosida tartib berilgan va har radif harfiga sarlavha qo'yib husnixat bilan nasta'liqda ko'chirilgan London nusxasi bor. Taxminimizcha, uni devon tartibiga kotib – Hayot Ali keltirgan. Manba hind rojasi Ajit Sing Jayb Bahodur buyrug'i bilan hijriy 1190 (milodiy 1776)-yil kitobat qilingan. Unda yana ikki temuriy-Sulton Husayn mirzo va Sulton Mas'ud mirzo Shohiy devonlari ham bir jildga keltirilgan.

Umuman, mazkur devon qo'lyozmalari bir-birini takrorlashi bilan ajralib turadi. Masalan, Hindistonda ko'chirilgan (Rampur nusxa xorij) qo'lyozmalarining matni deyarli bir xil (London nusxa ham Hindistonga oid). Islomobod nusxasi esa Parij nusxasining takroridir. Birgina Toshkent nusxasi XX asr mahsuli bo'lib (1996), unda an'anaviy devonchilik shaklidan biri – janrlar ketma-ketligi mavjud bo'lsa-da, mumtoz devonchilikning muhim sharti – arab alifbosining tartibi saqlanmagan. U professor S.Hasanovning tashabbusi va ko'rsatmasi bilan To'xtamurod Zufarov tomonidan chiroyli nast'aliq xatida ko'chirilgan.

Bobur ijodiy merosiga qiziqish tufayli XX asrga kelib uning lirik asarlarini devon holiga keltirish va she'rlarining sahiih matnini yaratishga doir ayrim urinishlar bo'ldi. Shu kunga qadar Bobur she'riyatidan namunalar turli tarzda bir necha bor chop etildi. Bu borada F.Ko'pruli (1915), A.Samoylovich (1917), A.Qayumov (1965), S.Hasanov (1982), Sh.Yorqin (1983, 2008), A.Abdug'afurov (1994), B.Yujel (1995) va boshqalarni sanash mumkin. Ular ichida Bobur devonining yig'ma shakldagi ikki nashri muhim bo'lib, bular afg'onistonlik olim Shafiqa Yorqin va turkiyalik olim Bilol Yujel tarafidan amalga oshirilgan. Ular o'zlarigacha bo'lgan jami boshqa nashrlardan batafsilroq so'zboshi, izohlari, matnining nisbatan to'laligi va birmuncha ilmiy apparatlar bilan ta'min etilgani bilan ajralib turadi. Lekin ularni ham mukammal ilmiy izohga ega, to'la-to'kis va sahiih matn darajasida deb bo'lmaydi. Negaki: 1) Sh.Yorqin va B.Yujel devonning Haydarobod, London, Toshkent va Islomobod nusxalarini tadqiq uchun tortmaganlar; 2) ushbu nashrlar, to'liq ravishda, an'anaviy mumtoz devon shaklida emas; 3) har ikki nashr matnida qo'lyozmalararo ba'zi farqlar ko'rsatilsa-da, barcha nusxalar istifoda etilmagani va tanqidiy matn prinsiplaridan kelib chiqilmagani bois to'liq holda emas.

Bobur devonining qo'lyozmalari yuzasidan izchil tekshirishlar shuni ko'rsatmoqdaki, shoir devonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish juda ham zarur ekan. Biroq masalaning chigal va yechilmas jihati bor. U ham bo'lsa, Boburning o'zi tuzgan yoki tuzdirgan va tahrirdan o'tkazgan to'liq (yoxud nisbatan to'liq) devon qo'lyozmasi qo'limizda bo'lmas ekan, ilmiy-tanqidiy

matnini haqiqatda amalga oshirib bo'lmaydi. Negaki, muallifning o'zi devonni qay tartibda tuzgan, an'anaviy mumtoz devonchilikning qoidalariga qat'iy amal qilganmi-yo'qmi, degan savollar qalqib chiqaveradi. Ustiga-ustak, ilmiy-tanqidiy matnga asos asl (tayanch nusxa bo'lgulik) mukammal qo'lyozmaning o'zi amalda yo'q. Chunki ilmiy-tanqidiy matn barcha yoki eng mo'tabar qo'lyozma nusxalar asosida yaratilishi matnshunoslik ilmidagi qabul qilingan.

Zikr etilgan qo'lyozmalardan ma'lum bo'lmoqdaki, ular shoir she'rlarining devon tuzish uchun yig'ilgan jamlanma, qoralama (musavvada)si va keyinchalik ulardan ko'chirilgan ayrim ziynatli va oddiy nusxalar xolos. To'g'ri, Londondagi "Devoni Bobur podshoh" (shunday nomlangan) qo'lyozmasi devon holda. Biroq u ham keyinchalik qo'lyozma kotibi tarafidagina shunday tuzilganini aytdik. Bobur tiriklik chog'ida ko'chirilgan Rampurdagi nusxa esa umuman devon tartibida emas va unda shoimning lirik she'rlarining o'zi sanoqli.

Mazkur vaziyatda **matnshunoslikda qo'llaniladigan yana bir muhim va ilmiy tajribadan muvaffaqiyatli o'tgan ishonchli matn turi** juda qo'l keladi. Bu ham bo'lsa – **yig'ma-qiyosiy matndir**. Unda Bobur she'rlarining qo'lyozmalararo farqlari, joylashish tartibidagi o'zgachaliklar, so'zlarning turli shaklda kelishini bir tizim asnosida ham matnini yig'ib, ham o'zaro qiyoslab, ham uni tuzatilgan-sahiih matn shaklida ko'rish mumkin bo'ladi. Shu jihatlarni ko'zda tutib bunday matnini yuzaga keltirish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Masalan:

Taqdirdur ul yon-u bu yon solg'uchi, yo'qsa,

Kimga havasi Sanbal-u tatyir qilibtur? –

baytini olsak. Bobur she'rlarining ayrim zamonaviy nashrlarida ostiga chizilgan o'rin "*havas Sanbalu, tatyir*" (1982), "*havasi Sanbalu Tatyir*" (1994, 2007, 2008) deb berilgan hamda "Sanbal" va "Tatyir" "Hindistondagi joylar nomi" deya izohlangan. Ba'zilarida hatto "*sunbuli tatyir*" (1976) yoki "*sunbulu taqdir*" (1996) tarzida g'alat berilgan.

"Sanbal" chindan Hindistondagi bir viloyat va bu nom "Boburnoma"da ham bor. Lekin "tatyir" so'zi mavhum bo'lib qolmoqda. Bunday joy nomi "Boburnoma"da ham, Hindistonda ham yo'q.

Aslida baytda Bobur nafaqat o'z, balki o'g'li Muhammad Humoyun taqdiriga ham ishora qilmoqda. Chunki voqealarning tarixiy yechimi bizga aynan shu o'rinda Humoyun hayotidan bir hikoya qalamga olinganiga urg'u beradi. Chunki she'r 1528-yil ko'chirilgan Rampur nusxasiga kirgan.

Masalani ravshanlashtirish maqsadida "Boburnoma"ga murojaat etsak.

Asarning hijriy 932 (milodiy 1525)-yil voqealari bayon etilgan qismida Bobur 13844000 tanga daromadga "... *Sanbalni dag'i Humoyung'a inoyat qildim...*" deya ta'kid etadi. Shuningdek, asar oxiridagi (936/1528– 1529-yil) voqealar qismidagi so'nggi tarixiy hodisa ham aynan Sanbal viloyatiga yuborilgan Humoyun hayotining bir qiyin dami bilan bog'liq: "...*Va Muhammad Humoyun, Sanbalg'akim, aning joygiri edi, ruxsat berildi. Olti oy-*

gacha anda edi; zohiran ani yer va suyi xush yoqma-
di. Isitma tutar ekandur, bora-bora uzoqqa tortar. To
onki biz eshittuk, farmon berildikim, Dehlig'a kelturub,
Deholidin kemag'a solib keltursinlarkim, hakimi hoziqlar
ko'rub, dardig'a davo qilsunlar. Bir necha kunda daryo
yo'li bilan kelturdilar va tabiblar har necha doru darmon
berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abdulqosimkim, ulug' ki-
shi edi, arzg'a yetkurdikim, ushmunudoq dardlarg'a dar-
mon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq
kerak. To inki Tengri taolo sihat bergay. Men ko'nglum-
ga keldikim, Muhammad Humoyun(ning) mendin o'zga
yaxshiroq nimarsasi yo'q. Men o'zum tasadduq bo'la-
yin. Xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o'zga muqarrablard-
in arzg'a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihat
topar, siz bu so'zni nechun tilingizga kelturasiz. G'araz
budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq
kerak. Bas, o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub
edi, Muhammad Humoyung'a inoyat qilib edingiz, tasad-
duq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning eva-
zig'a nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol
anga mushkil bo'libtur. Va andin o'tubturkim, men aning
betoqatlig'ini toqat kelturgaymen. O'shal holatga kirib,
uch qatla boshidin o'rgulub, dedimkim, men ko'tardim
harne darding bor. O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul
yengil bo'ldi. U sihat bo'lub qo'пти. Men noxush bo'lub
yiqildim..."¹⁵

Ostiga chizilgan misralarga diqqat etilsa, "dun-
yo moli"dan ham ortiq bo'lgan o'z joni bilan fidokorlik
qilayotgan Boburning e'tiroflari juda ham haqqoniyli-
gi o'ziga maftun qiladi. Chindan ham uning farzandi
uchun eng aziz bo'lgan narsasi, o'sha mashhur olmosni
emas, o'z jonini fido etishi rostmana mardlik namunasi
edi. Keyingi o'rinda esa u butun "ayoni davlat va arkoni
mamlakatni chorlab" Humoyunga bay'at qildirgani, taxt-
ni topshirgani va oldida bor kishilar ham uni qabul et-
ganlarini yozadi. Shundan so'ng Boburning o'z tili bilan
bitgan voqealar asarda tugab, noma'lum kotib tomoni-
dan bir necha sahifada Bobur mirzoning ezgu xislatlari,
asarlari, farzandlari va zamonasidagi uning homiyli-
da kamol topgan olim-u fuzalo haqida xabar beriladi.
"Boburnoma" ham shu bilan tugagan.

Modomiki, masala shunday ekan, baytdagi "tat-
yir" umuman xato bo'ladi. She'r to'g'ri va aniq berilgan
Rampur nusxasida bu so'z رىظن (nazir) deb, Istanbul
universiteti nusxasida esa so'zdagi "yo" harfi nuqtali,
qolgan harflar nuqtasiz berilgan. Balki shuning uchun
yanglishliklar kelib chiqqandir. Demak baytni:

Taqdirdur ul yon-u bu yon solg'uchi, yo'qsa,
Kimga havasi Sanbal-u nazir qilibtur? –
deya o'qish kerak.

Endi "Boburnoma"dan keltirilgan voqealar bilan
bog'lasak, (chunki she'r aynan shu vaqtda yozilgan)

qo'shmisranning mazmuni aniqlashadi. Ya'ni kishini dam
u, dam bu tomon yo'llaguvchi taqdirdir; agar shunday
bo'lmasa edi (Hindistonning) Sanbal (degan joyi)ni o'z
farzandiga nazir (teng) qilishni kim ham havas qilardi.
Chunki taqdir bo'lmasa edi, o'sha tomon borilmagan
bo'lurdi. G'azalning keyingi baytlari mazmuni ham
shunday yechimga keltiradi.

Bu birgina g'azal baytni qo'lyozmalar aro qiyoslash-
dan keyingi natija. Vaholanki, devondagi o'nlab she'rlar
matnidagi yanglishliklar faqat va faqat o'zaro qiyoslarda
ma'lum bo'ladi.

Qo'lyozmalardagi Bobur she'rlarini o'rganish nati-
jasida deyarli har bir she'r yuqoridagi kabi o'zgarishlar-
ga ega ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Albatta, bunday farq
va tafovutlarning barchasini devon nashrida berish tor
mutaxassislar doirasi uchungina foydalidir. Ammo ular
orqali shoirning ijodiy laboratoriyasiga matnshunoslik
asosida nazar solish imkoniyati paydo bo'ladi. Shoir
lirikasini yanada teranroq tadqiq etishga omil bo'ladi.
Keyin matnlarni ilmiy apparatlar bilan ta'minlash, har
she'rning qo'lyozmadagi o'rmini aniqlash va har sahi-
fada farqlarni ko'rsatish juda ham muhim. Biroq shuni
ham ta'kidlash joizki, qo'lyozma nusxalardagi tahrirlar-
ning qay birini muallif, qaysini kotiblar amalga oshirgani
masalasi ham butkul hal qilinadi, degan iddaodan
yiroqmiz. Faqat qo'lyozmaning yaratilish (ko'chirilgan)
vaqtidan kelib chiqib taxminiy fikrlar bildirish mum-
kin. Shunday esa-da, yig'ma-qiyosiy matn davomida
Bobur lirikasining eng nozik jihatlari, o'ziga xos origi-
nalligi, uslubning o'zgachaligi, so'z qo'llashdagi maho-
rati, shoirona o'xshatishlarning go'zalligi kabi sifatlarga
yanada yaqindan oshno bo'lish, tanishish, o'rganish
imkoniyati yaratiladi. Qolaversa, Boburday mumtoz
shoirimiz devonining sahih va mukammal matni yuzaga
keladi. Unda ijodkorning o'zbek va fors tilidagi barcha
she'rlari ilk bora yaxlit devon holiga keltiriladi. Nashr tar-
tibi masalasida an'anaviy devon tuzilishi bo'yicha yo'l
tutiladi. Bizning hisobga ko'ra o'zbekcha jami: g'azal
(123 ta, 2 tasi notamom), masnu' (2 ta), masnaviy (14
ta), qit'a (23 ta), tuyuq (17 ta), fard (104 ta), muammo
(54 ta), ruboiy (222 ta); forscha: g'azal (2 ta), ruboiy (10
ta), qit'a (8 ta), ta'rix (1 ta), fard (15 ta) janridagi she'rlar
bir oraga jam bo'ladi.

Xulosa qilganda, ko'zda tutilayotgan Bobur tomoni-
dan tuzilgan yoki tuzishga harakat qilingan devon bitta-
gina, xolos. 2016-yil amalga oshirilgan uning yig'ma-qi-
yosiy matni esa shoir lirik merosining eng to'liq jam-
lanmasi bo'lib, an'anaviy mumtoz devonchilik qoidalari
asosida, ishonchli qo'lyozmalarga binoan tuzilganligi va
matn sahihligi bilan shu kungacha chop etilgan boshqa
nashrlardan ajralib turadi.

¹⁵N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1963. 646-bet.

¹⁶O'zbek adabiyoti tarixi. 3-jild. T., 1978. 54-bet.

¹⁷Boburnoma. T.: Sharq, 2002. 174-bet.

¹⁸Qarang. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq, 2014 va 2017.

¹⁹Boburnoma. T.: Sharq, 2002. 266-bet.